



JAMOAT INTERYERLARIDA TABIIY ELEMENTLARNING EKOLOGIK QULAYLIKKA TASIRI

Mirzo Ulug'bek nomidagi

Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti, 1-bosqich magistri

Abdurazzoqov M.

Rahbar: Arx (Phd), Dotsent, Babakandov O.N.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat makonlarida tabiiy elementlarni interyer va makon tizimiga integratsiya qilish orqali ekologik qulay muhit yaratish masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tabiiy yorug'lik, yashil elementlar, suv obyektlari va tabiiy materiallarning inson salomatligi, psixologik holati, ijtimoiy faolligi hamda makon sifatiga ta'siri ilmiy manbalar asosida o'rganilgan. Shuningdek, eko-uslub va biofilik dizayn kontseptsiyalari asosida jamoat makonlarini loyihalashning zamonaviy tendentsiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik qulaylik, jamoat makonlari, tabiiy elementlar, biofilik dizayn, eko-uslub, interyer muhiti, barqaror dizayn.

Kirish. Hozirgi globallashuv va jadal shaharlashuv sharoitida jamoat makonlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jamoat makonlari — bu insonlar kundalik hayotida eng ko'p foydalanadigan muhit bo'lib, ular ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, madaniy va ma'naviy hayotni boyitish, shuningdek, dam olish va faoliyat yuritish uchun xizmat qiladi. Bunday makonlarga ta'lim muassasalari, madaniy binolar, savdo va xizmat ko'rsatish markazlari, ma'muriy binolar hamda boshqa umumiy foydalaniladigan joylar kiradi.

Biroq zamonaviy jamoat makonlarining ko'p qismi sun'iy muhit asosida loyihalangan bo'lib, tabiiy omillar yetarlicha hisobga olinmaydi. Bu esa insonning jismoniy va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiatdan uzoq muhitda uzoq vaqt bo'lish stress, charchoq,



diqqatning susayishi va umumiy hayot sifati pasayishiga olib keladi. Shu sababli jamoat makonlarida ekologik qulay muhit yaratish zamonaviy arxitektura va interyer dizaynining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ekologik qulaylik tushunchasi insonning tabiat bilan uyg'un holda yashashi, sog'lom va barqaror muhitda faoliyat olib borishi bilan bog'liqdir. U nafaqat muhitning sanitar-gigiyenik holati, balki psixologik, estetik va ijtimoiy omillarni ham qamrab oladi. Ayniqsa, jamoat makonlarida ekologik qulaylikni ta'minlash keng ahamiyat kasb etadi, chunki bu makonlar turli yoshdagi va turli ijtimoiy guruhga mansub insonlar uchun xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, jamoat makonlarida tabiiy elementlarni qo'llash orqali ekologik qulay muhit yaratish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Tabiiy yorug'lik, o'simliklar, suv elementlari va tabiiy materiallar insonda tabiat bilan bog'liqlik hissini uyg'otib, ruhiy xotirjamlikni ta'minlaydi hamda makonning umumiy sifatini oshiradi. Bunday yondashuvlar eko-uslub va biofilik dizayn kontseptsiyalari doirasida keng qo'llanilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — jamoat makonlarida tabiiy elementlarning ekologik qulaylikka ta'sirini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va ularning inson salomatligi hamda makon sifatini yaxshilashdagi rolini ochib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada zamonaviy jamoat makonlarini loyihalashda tabiiy elementlardan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Ekologik qulaylik tushunchasining nazariy asoslari. Ekologik qulaylik tushunchasi insonning jismoniy, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlariga mos keladigan muhit sifatida talqin qilinadi. Ilmiy manbalarda ekologik qulaylik quyidagi asosiy ko'rsatkichlar orqali belgilanadi:

1. mikroiqlim (harorat, namlik, havo aylanishi);
2. yorug'lik muhiti (tabiiy va sun'iy yorug'lik muvozanati);
3. akustik qulaylik;
4. vizual va estetik sifat;



5. ekologik xavfsiz materiallardan foydalanish.

Jamoat makonlarida ekologik qulaylikni ta'minlash insonlarning ushbu makonlarda ko'proq vaqt o'tkazishi, o'zini xotirjam his qilishi va ijtimoiy faolligi oshishiga olib keladi.

Jamoat makonlari va ularning funktsiyalari. Jamoat makonlari jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) ta'lim muassasalari (maktab, universitet, kutubxona);
- 2) madaniy binolar (muzey, teatr, ko'rgazma zallari);
- 3) savdo va ko'ngilochar majmualar;
- 4) ma'muriy va ofis binolari;
- 5) tibbiyot muassasalari.

Bu makonlar insonlar kundalik hayotining katta qismini qamrab olgani sababli, ularda yaratilgan muhitning sifati jamiyat salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jamoat makonlarida tabiiy elementlarning turlari.

1. Yashil elementlar va o'simliklar. O'simliklar jamoat makonlarida ekologik qulaylikni ta'minlashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular:

- havoni tozalaydi;
- kislorod miqdorini oshiradi;
- namlikni me'yorlashtiradi;
- insonlarda xotirjamlik va ijobiy emotsiyalarni shakllantiradi.

Vertikal bog'lar, ichki qishki bog'lar, fitodizayn elementlari jamoat makonlarida keng qo'llanilmoqda va bunga misol qilib Parijdagi *Quai Branly Museum* ni keltirishimiz mumkin



(1-rasm).



1-rasm. Quai Branly Museum (Parij). Patrick Blanc (Fransiya) — vertikal bog'lar asoschisi

2. Tabiiy yorug'lik - inson organizmining biologik ritmlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Katta oyna ochiqliklari, atriumlar va shisha tomlar orqali tabiiy yorug'likdan samarali foydalanish:

- energiya sarfini kamaytiradi;
- ko'rish qulayligini oshiradi;
- insonning ish qobiliyatini yaxshilaydi.




2-rasm. Gardens by the Bay (AQSH davkati Xyuston shahri)

3. Suv elementlari - jamoat makonlarida estetik va psixologik ahamiyatga ega. Fontanlar, sun'iy havzalar va suv devorlari:

- mikroiqlimni yaxshilaydi;
- shovqinni kamaytiradi;



➤ vizual relaksatsiyani ta'mi




3-rasm. *Dubai Mall (Dubaida shaharda). Marina Bay Sands (Singapur shaharda)*

4. Tabiiy materiallar. Yog'och, tosh, bambuk, tabiiy matolar kabi materiallar intery erda iliq va sog'lom muhit yaratadi. Ular sun'iy materiallarga nisbatan ekologik xavfsiz hisoblanadi va insonda tabiat bilan bog'liqlik hissini kuchaytiradi.

Tabiiy elementlarning ekologik qulaylikka ta'siri. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy elementlar qo'llanilgan jamoat makonlarida:

- 1) insonlarda stress darajasi kamayadi;
- 2) diqqat va ish samaradorligi oshadi;
- 3) umumiy psixologik holat yaxshilanadi;
- 4) makonning estetik sifati ortadi.



4-rasm. *T3 Airport Terminal (AQSH shaharda)*

Bu esa jamoat makonlarining ijtimoiy va funktsional ahamiyatini yanada oshiradi.



Xulosa. Jamoat makonlarida tabiiy elementlarni qo'llash ekologik qulay muhit yaratishning muhim omili hisoblanadi. Eko-uslub va biofilik dizayn yondashuvlari orqali inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklash mumkin. Bunday makonlar nafaqat estetik jihatdan jozibali, balki sog'lom va barqaror muhit sifatida ham ahamiyatga ega.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Kellert S. R. Biophilic Design: The Theory, Science and Practice of Bringing Buildings to Life. Wiley, 2008.
2. Edwards B. Rough Guide to Sustainability. RIBA Publishing, 2010.
3. Kwallek N., Lewis C. Effects of environmental colour on productivity and mood. Applied Ergonomics, 1990.
4. Heerwagen J. Biophilia, Health, and Well-Being. Restorative Commons, 2009.
5. Pallasmaa J. The Eyes of the Skin: Architecture and the Senses. Wiley, 2012.